

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**«MAHALLIY XOMASHYOLAR VA IKKILAMCHI RESURSLAR
ASOSIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR»
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

1-JILD



Urganch 2021-yil 19-20-aprel

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

texnika fanlari doktori, professor

JUMANIYAZOV MAQSUD JABBIYEVICH

tavalludining 60 yilligi

hamda ilmiy faoliyatining 40 yilligiga bag‘ishlangan

**«MAHALLIY XOMASHYOLAR VA IKKILAMCHI RESURSLAR
ASOSIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR»**

mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI



2021-yil 19-20-aprel

KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

M.A.Nurmurodova, G.A.Xudoynazarova

BuxDU

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763 son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarni joriy etishning xalqaro tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborot – kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatdan yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir"

Ta'lim tizimini tubdan isloh etish o'quvchi – yoshlarmizning ongi tafakkur va dunyoqarashini o'zgartirish, kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylantirishda o'qituvchilarning ham hissasi katta hisoblanadi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni, uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog – o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayoni o'qish va bilish faoliyatiga o'zgartirishning imkoniyatlaridan biri muammoli o'qitish texnologiyasini tatbiq etishdan iborat. Chunki muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham o'zlarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni yechish uchun doim sinovdan o'tkazadilar.

O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagilarni hal qilishi kerak:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni aniqlashda didaktikaning ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlash, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarni belgilash zarur.

Muammoli darslarda o'quvchining faoliyati, eng avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va uslubiy saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat.

Muammoli ta'lim texnologiyalarni kimyoviy mavzularni o'tish jarayonida qo'llashda "Grafik organayzerlar", "Assesment", "FSMU", "Keys-stadi" "Rezyume" singari usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyida 8 sinfda "Kimyoviy elementlar davriy qonuni", "Kimyoviy elementlar davriy sistemasi", "Elementlarni davriy jadvaldagi o'rni va atom tuzilishiga qarab tavsiflanishi. Davriy qonunning ahamiyati" kabi mavzularni o'tishda muammoli ta'lim texnologiyalardan "Keys-stadi" usulidan foydalanish yo'lini tavsiya etamiz.

Masalan, yangi mavzuni o'tib bo'lgach, o'qituvchi davriy sistema haqidagi she'riy keysni ifodali o'qiydi:

Buyuk kashfiyot

Atomlarning muayyan turi erur
Eng mashhur Mendeleev jadvalidur.
Unda mujassam 119 element
Har biri o'z vazifasin bilur.
Bari safda turar navqiron
Hech bir-biriga bermagay yon
Birlashsa gar shuni biling-ki,
Modda hosil qilar begumon.

Jadvalda 7 davr, 8 guruh va 10 qator
119 element xizimatingizga tayyor.
Metall-u metallmas, gazlari bor unda
Barchasi mujassam bu jadvalda.
Davriy jadval fanga asosiy qo'llanma,
Kimyoni o'rganishga sizga yo'llanma.
Ko'ring, o'qing, aylangiz yod
Fanga bo'lur bu "BUYUK KASHFIYOT"

O'qituvchi tomonidan she'riy keys o'qib berilgandan so'ng o'quvchilarga quyidagi muammoli savollar bilan murajaat qiladi, ya'ni

1. She'r qaysi "Buyuk kashfiyot" haqida so'z boradi?
2. Kashfiyotning bugungi kundagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Kashfiyotning yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

Darsning baholash bosqichida "Assesment" texnikasini qo'llagan holda o'quvchilarni o'tilgan yangi mavzu bo'yicha bilimi baholanadi.

Demak, an'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbasi bo'lsa, muammoli o'qitishda esa o'qituvchi ta'lim oluvchilarning izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkil etuvchisi, maslahatchisi va yordamchisi sifatida ko'radi. Muammoli ta'lim jarayoni an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan yuqoriroq mahorat talab qiladi.

13	KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH <i>M.A.Nurmurodova, G.A.Xudoynazarova</i>	306
14	ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ВЫСШЕЙ ОБРАЗОВАНИИ <i>Машиарипова А.К., Абдурахмонова Т.Р.</i>	308
15	ДАРSLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOXITALARNING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH <i>X. Bakiyeva, H. Sarimsaqova, O. Olimova, M. Sharipova</i>	310
16	"ELEKTROLITLAR VA NOELEKTROLITLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNI QO'LLANILISHI <i>Safayev Sh.O., Abduraxmonova T.R., Masharipova A.K.</i>	312
17	ДУАЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ГЕРМАНИЯ ТАЖРИБАСИДА <i>Машиарипова А.К., Каримова Д.З.</i>	314
18	РАЗРАБОТКА МЕТОДИК, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ СПОСОБНОСТЬ УЧАЩИХСЯ ПРИОБРЕТАТЬ ЗНАНИЯ И НАВЫКИ 1,2,3 СТЕПЕНИ НА ПРИМЕРЕ ПОДГРУППЫ ХРОМА <i>Реимов К.Д., Тулепова А.Т.</i>	316
19	ПЕРСПЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ХИМИИ <i>Бектурганова З.К., Калыбаева У.Т.</i>	318
20	«БЕШ АЪЗОЛИ ГЕТЕРОЦИКЛИК БИРИКМАЛАР» MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI <i>Мадаминова К.Н., Яхшимуратов М.Р., Курязов Р.Ш., Тахиров Ю.Р., Душамов Д.А.</i>	320
21	NOAN'ANAVIY USLUBDA KIMYOVIY DIKTANT O'TKAZISH METODIKASI <i>L. Abatova., M.B. Ajiyeva., B.A. Ajiyeva</i>	322
22	KIMYO FANLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Ergashev I.M., Mamirzayev M.A., Ergashova Sh.I.</i>	324
23	KIMYO FANINI O'QITISHDA MA'RUZA DARSLARINING O'RNI <i>Ergashev I.M., Ergashova Sh.I., Suyunov Sh.X.</i>	326
24	KIMYO TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION ELEKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASH AFZALLIGI <i>G.A. Ixtiyarova, Z.U. Ishmanova</i>	328
25	KIMYO FANIDAN INNOVATSION ELEKTRON DARSLIKDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA AFZALLIGI <i>G.A. Ixtiyarova, Z.U. Ishmanova, M.Sh. Axadov, Ch.Q. Xaydarova</i>	330
26	KIMYO FANINI O'QITISHDA TABIIY FANLAR BILAN FANLARARO BOG'LANISHNI AMALGA OSHIRISH. <i>S.M. O'rmonov, U.G. Abdullayeva</i>	332